

Eksport bo'yicha yillik reja 10 oyda, muddatidan oldin bajarildi

// 30 November 2022 yil

<https://pda.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/eksport-boyicha-yillik-reja-10-oyda-muddatidan-oldin-bajarildi>



2022-yilning 10 oyi davomida "O'zkimyoiimpexs" MChJ tomonidan "O'zkimyosanoat" AJ bo'yicha belgilangan yillik eksport ko'rsatkichi muddatidan oldin bajarildi. Xususan, joriy yilning yanvar-oktabr oylarida amalda umumiy qiymati **407,3 mln.** dollarlik kimyo mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, yillik reja (**400,8 mln.** dollar) 31-oktabr holatiga **101,7 foizga** bajarildi. 2021-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan **155 foizga** o'sish ta'minlandi.

Ushbu ko'rsatkichlarga sohaning eksport salohiyatini yuksaltirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tizimli chora-tadbirlar hisobiga erishilmoqda. Jumladan, eksport qilinayotgan mahsulotlarni diversifikatsiyalash bo'yicha choralar ko'rilmoqda. Joriy yil davomida **37 turdagi** kimyo mahsulotlari eksportga chiqarildi. Shuningdek, **13 turdagi** umumiy qiymati **18 mln.** dollarlik yangi mahsulotlar murakkab mineral o'g'itlari (**9 xil**), polianion selluloza, suyuq mineral o'g'itlari (**2 xil**) eksportga chiqarildi. Ta'kidlash joizki, ayrim turdagi mahsulotlar eksportining o'sish sur'ati o'tgan 2021-yilning mos davriga nisbatan katta ko'rsatkichlarni tashkil etdi. Bulardan superfosfat eksporti **35 barobarga**, suyultirilgan ammiak mahsuloti eksporti **16 barobarga**, avtomobil shinasi eksporti **11 barobarga**, suyuq argon va ammoniy xloridi eksporti **6 barobarga** oshgan.

"O'zkimyoiimpexs" MChJ tomonidan yangi bozorlarni o'zlashtirish hisobiga eksport geografiyasi kengaytirilmoqda. Yil boshidan buyon jahonning **36 ta** davlatiga mahsulotlar eksporti amalga oshirildi. Bu

ko'rsatkich 2021-yilda **28 tani** tashkil qilgan. Shu jumladan, Mongoliya davlatiga umumiy qiymati **625,8 ming** dollarlik karbamid va NPK mahsulotlari eksportga chiqarildi.

Shu bilan birga, mahsulot eksportida tashqi bozordagi yirik treyderlar bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi. Litva davlatining "UHB Agro" kompaniyasi bilan hamkorlikda "Samarkand-NPK" MChJ QKda NPK o'g'itlarini ishlab chiqarish va eksportga yo'naltirish yo'lga qo'yildi. Yanvar-oktabr oylarida **19,6 mln.** dollarlik **41,8 ming** tonna NPK o'g'itlari eksportga chiqarildi.

Iste'molchilar va tashqi bozorning talabidan kelib chiqib birinchi marta "Farg'onazot" Ajda mineral o'g'itlarni qop bilan bir qatorda big-beglarga yuklash amaliyoti qo'llanildi. Bu esa, o'z navbatida, samarali natija berdi.

Shuningdek, jahon bozoridagi mineral o'g'itlar narxi dinamikasi doimiy ravishda tahlil qilinib, mahsulotlarni yuqori rentabelli narxlarda sotishga erishildi. Masalan, 2021-yilning yanvar-oktabr oylarida **198,5 mln.** dollarlik **871,5 ming** tonna mineral o'g'itlari eksportga chiqarilgan bo'lsa, joriy yilda **753 ming** tonna mineral o'g'itlari **329,4 mln.** dollarga eksportga chiqarildi, ya'ni o'tgan yilga nisbatan eksportga chiqarilgan har bir tonna mineral o'g'itdan **209 dollar** ko'p foyda ko'rildi.

Qolaversa, Rossiya va Ukraina o'rtasidagi ziddiyatlar oqibatida vujudga kelgan geosiyosiy holatning "O'zkimyosanoat" AJ tashqi iqtisodiy faoliyatiga salbiy ta'sirini kamaytirish borasida tegishli chora-tadbirlar ko'rildi. 2022-yilda Ukraina davlatiga eksporti mo'ljallangan umumiy qiymati **127,2 mln. 7,6 ming** tonna xlorat natriysi eksport qilingan bo'lsa, joriy yilda ushbu ko'rsatkich **13,8 ming** tonnani tashkil etdi (o'sish sur'ati - **182 foiz**). Joriy yilda **2,98 mln.** dollarlik **111,5 ming** dona avtomobil shinalari eksport qilindi. Yil yakuni bilan xlorat natriysi eksport ko'rsatkichini **14,8 ming** tonnaga, avtomobil shinasi bo'yicha ko'rsatkichni **122 ming** donaga yetkazish ko'zda tutilmoqda. Shuningdek, ko'rilgan choralar, o'z navbatida, Rossiya davlatiga amalga oshirilayotgan umumiy eksport ko'rsatkichiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

2021-yil yanvar-oktabr oylarida Rossiya davlatiga umumiy qiymati **4,5 mln.** dollarlik **7 turdagi** kimyo mahsulotlari eksport qilingan bo'lsa, 2022-yil mos davrida **12 turdagi** umumiy qiymati **15 mln.** dollardan ortiq kimyo mahsulotlari eksport qilindi. (o'sish sur'ati - **333 foiz**).

Yana bir muhim jihat shundaki, mahsulotlarni eksport qilishdaxorijiy mamlakatlarda ochilgan savdo uylaridan unumli foydalanilmoqda. Joriy yilda savdo uylari orqali **33,6 mln.** dollarlik mahsulotlar eksportga chiqarildi.

Hozirda ichki zaxira va imkoniyatlarni qayta ko'rib chiqib, qo'shimcha ravishda **25 mln.** dollarlik kimyo mahsulotlarini eksportga chiqarish rejalashtirilmoqda. Ushbu qo'shimcha eksport ko'rsatkichini hisobga olib, 2022-yil yakuni bilan yillik eksport ko'rsatkichini **450 mln.** dollarga yetkazish va belgilangan rejani **112,3 foizga** bajarish, 2021-yilga nisbatan o'sishni **117,8 foizga** ta'minlash kutilmoqda.